# TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

**2021/22**

**60310700 – Siyosatshunoslik bakalavriat dasturi uchun**

# QO‘LLANMA




*Sharq mamlakatlari iqtisodiyoti, siyosati va turizm fakulteti*

*Sharq mamlakatlari siyosati va xalqaro munosabatlar kafedrasi*



**Aziz talabalarimiz!**

*Sizlarni TDSHUning ahil jamoasiga, sharqshunoslar oilasiga qo'shilganingiz bilan samimiy tabriklayman. O'z oldingizga sharqshunoslik ilmini egallashdek oliy maqsad qo'yganingiz bilan muborakbod etaman.*

*Sizga taqdim etilayotgan ushbu qo'llanmaning maqsadi siz qabul qilingan bakalavriat(magistratura) dasturining asosiy tafsilotlarini tushuntirishdir. Ushbu qo'llanmadagi ba'zi ma'lumotlar bir qarashda murakkab va qo'rqinchli bo'lib ko'rinishi mumkin, lekin siz Universitet va dastur haqida boshlang'ich bilimlarni egallaganingizdan keyin siz ushbu qo'llanmani juda foydali ekanligini tushunib yetasiz. Ushbu qo'llanma sizga dastur tuzilishi, baholash tartiblari, dasturga mas'ul shaxslar va boshqa muhim jihatlarini tushunishga yordam beradi deb umid qilaman.*

*Vatanimiz taraqqiyotiga hissa qo'shib, uning dovrug'ini olamga taratib kelayotgan mashhur sharqshunoslar an'analarini davom ettirishda, barchangizga katta shijoat, omad va muvaffaqiyatlar tilayman.*

**G.Sh.Rixsiyeva**

**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti rektori**

| MUNDARIJA | |
|---|---|
| **UNIVERSITET MA'LUMOTLARI** | |
| Universitetning tarixi…………………………………………………………………….. | **4** |
| Universitetning infratuzilmasi……………………………………………………………. | **5** |
| Universitet rahbariyati……………………………………………………………………. | **6** |
| O'quv jarayoni grafigi……………………………………………………………………. | **7** |
| TDSHU ta'lim dasturlari…………………………………………………………………. | **8** |
| Mobillik davri va oldingi ta'limni tan olish……………………………………………… | **9** |
| Kreditlarni taqsimlanish prinsipi……………………………………………………….. | **9** |
| **UNIVERSITET XIZMAT VA RESURSLARI** | |
| Talabalar turar joyi……………………………………………………………………….. | **10** |
| Talabalar bilan ishlash xizmatlari………………………………………………………… | **11** |
| Axborot resurs markazi…………………………………………………………………... | **12** |
| **O'QUV FANLARI DASTURLARI TO'G'RISIDA AXBOROTLAR** | |
| O'zlashtiriladigan malakalar……………………………………………………………... | **12** |
| Me'yoriy va o'quv-uslubiy hujjatlar……………………………………………………... | **14** |
| TDSHU ta'lim bosqichlari o'quv rejalariga muvofiq kreditlar taqsimoti…………………... | **14** |
| Talabalar bilimini baholash va nazorat qilish me'zonlari……………...…………………… | **15** |
| Dastur tafsifi va fan platformalari………………………………………………………... | **17** |
| Fanlar katalogi……………………………………………………………………………... | **18** |

# UNIVERSITET MA'LUMOTLARI

## UNIVERSITETNING TARIXI

**1918-yil** Toshkent shahrida O'rta Osiyoda ilk sharqshunoslik oliy o'quv yurti Turkiston Sharqshunoslik instituti tashkil etilgan.

**1944-yil** O'rta Osiyo davlat universiteti (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti) qoshida Sharq fakulteti ta'sis etildi.

**1991-yil 15-iyul** O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 186-son qaroriga muvofiq Toshkent davlat universiteti Sharq fakulteti negizida Toshkent davlat sharqshunoslik instituti tashkil qilingan

**2020-yil 16-aprel** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4680qaroriga asosan Toshkent davlat sharqshunoslik instituti negizida Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tashkil etildi.




**1918-yil**
**Toshkent shahrida Turkiston Sharqshunoslik instituti**

**1991-yil**
**Toshkent davlat sharqshunoslik instituti**







**2020-yil**
**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti**

# UNIVERSITET KONTAKT MA'LUMOTLARI

**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti**
**Tel: +998 71 233 34 24**
**Faks: +998 71 233 52 24**
**Rasmiy sayt: https://tsuos.uz**
**E-mail: info@tsuos.uz**
**Manzili: 100060, Toshkent shahri, Amir Temur ko'chasi 20**

# UNIVERSITETNING INFRATUZILMASI



# TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
# O‘QUV JARAYONI GRAFIGI

O‘quv yili davomiyligi 36 hafta bo‘lib, shundan 30 haftasi akademik davrga, 2 haftasi fanlarni tanlash uchun ro‘yxatdan o‘tishga, 4 haftasi attestatsiyalarga ajratiladi. O‘quv yili davomiyligi o‘quv jarayoni jadvaliga muvofiq oliy ta’lim muassasasi kengashining qarori bilan o‘zgacha tartibda belgilanishi mumkin.

## 2021/2022-o‘quv yili

| Oylar va o‘quv haftalari | Sentabr | | | | Oktabr | | | | | Noyabr | | | | Dekabr | | | | Yanvar | | | | | Fevral | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | 1. | 2. | 3. | 4. | 5. | 6. | 7. | 8. | 9. | 10. | 11. | 12. | 13. | 14. | 15. | 16. | 17. | 18. | 19. | 20. | 21. | 22. | 23. | 24. | 25. | 26. |
| | 6-11 | 13-18 | 20-25 | 27-2 | 4-9 | 11-16 | 18-23 | 25-30 | 1-6 | 8-13 | 15-20 | 22-27 | 29-4 | 6-11 | 13-18 | 20-25 | 27-1 | 3-8 | 10-15 | 17-22 | 24-29 | 31-5 | 7-12 | 14-19 | 21-26 | 28-5 |
| **Bakalavriat bosqichi** | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| 1-kurs (kunduzgi, kechki) | K | | | | | | | | ❶ | | | | | | | ❷ | T | T | T | T | A | A | | | | |
| 2-kurs (kunduzgi, kechki) | | | | | | | | ❶ | | | | | | | ❷ | A | T | T | T | T | A | | | | | |
| 3-kurs (kunduzgi, kechki) | | | | | | | | | ❶ | | | | | | | | T | T | T | T | ❷ | A | A | | | |
| 4-kurs (kunduzgi) | | | | | ❶ | | | | | ❷ | M | M | M | M | M | M | T | T | T | T | M | M | A | | | |
| 4-kurs (kechki) | | | | | | | | | ❶ | | | | | | | | T | T | T | T | ❷ | A | M | M | M | M |
| **Magistratura bosqichi** | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| 1-kurs | K | | | | | | | | ❶ | | | | | | | ❷ | T | T | T | T | A | A | | | | |
| 2-kurs | | | | | | | | ❶ | | | | | | | ❷ | A | T | T | T | T | A | I | I | I | I | I |
| **Sirtqi ta’lim bosqichi** | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| 2-kurs | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | N | N | N | N | | |
| 3-kurs | | | | | | | | | | | | | N | N | N | N | | | | | | | | | | |
| 4-kurs | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | N | N | N | N | | |

| Oylar va o‘quv haftalari | Mart | | | | Aprel | | | | | May | | | | Iyun | | | | Iyul | | | | Avgust | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | 27. | 28. | 29. | 30. | 31. | 32. | 33. | 34. | 35. | 36. | 37. | 38. | 39. | 40. | 41. | 42. | 43. | 44. | 45. | 46. | 47. | 48. | 49. | 50. | 51. | 52. |
| | 7-12 | 14-19 | 21-26 | 28-2 | 4-9 | 11-16 | 18-23 | 25-30 | 2-7 | 9-14 | 16-21 | 23-28 | 30-4 | 6-11 | 13-18 | 20-25 | 27-2 | 4-9 | 11-16 | 18-23 | 25-30 | 1-6 | 8-13 | 15-20 | 22-27 | 28-31 |
| **Bakalavriat bosqichi** | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| 1-kurs (kunduzgi, kechki) | | | ❶ | | | | | | | | ❷ | A | A | T | T | T | T | T | T | T | T | T | T | T | T | T |
| 2-kurs (kunduzgi, kechki) | | ❶ | | | | | | | | ❷ | A | A | M | M | M | M | T | T | T | T | T | T | T | T | T | T |
| 3-kurs (kunduzgi, kechki) | | | | ❶ | | | | | | | | | | | ❷ | A | A | M | M | M | M | T | T | T | T | T |
| 4-kurs (kunduzgi) | | ❶ | | | | | ❷ | A | A | M | M | D | D | B | B | B | B | T | T | T | T | | | | | |
| 4-kurs (kechki) | M | M | M | M | | | | | ❶ | | | | | ❷ | A | A | T | T | T | T | T | T | T | T | T | T |
| **Magistratura bosqichi** | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| 1-kurs | | | ❶ | | | | | | | | ❷ | A | A | T | T | T | T | T | T | T | T | T | T | T | T | T |
| 2-kurs | M | M | M | M | M | M | M | M | M | M | M | D | D | D | D | T | T | T | T | T | T | T | | | | |
| **Sirtqi ta’lim bosqichi** | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| 2-kurs | | | | | | | | | | N | N | N | N | | M | M | M | M | | | | | | | | |
| 3-kurs | | | | | N | N | N | N | | | | | | | M | M | M | M | | | | | | | | |
| 4-kurs | | | | | | | | | | N | N | N | N | | M | M | M | M | | | | | | | | |

**Belgilar:**

| Belgi | Izoh |
|---|---|
| (bo‘sh) | Nazariy va amaliy ta’lim; mag-ra uchun nazariy ta’lim va ilmiy faoliyat |
| K | Kredit tizimiga kirish |
| ❶ ❷ | Oraliq baholash |
| A | Attesta-siyalar |
| M | Malakaviy amaliyot Ilmiy amaliyot (mag) |
| D | Davlat attestatsiyasi |
| B | Bitiruv malakaviy ishi himoyasi bilan |
| T | Ta’til |

## TDSHU TA'LIM DASTURLARI

Ayni paytda universitetda 7 ta fakultet, 25 ta kafedra va kechki va sirtqi, Magistratura bo'limi hamda Til va konsalting markazi faoliyat ko'rsatmoqda. Universitetda 11 ta ta'lim yo'nalishi va 14 ta mutaxassislik bo'yicha magistratura dasturlari mavjud.

## O'RGANILADIGAN SHARQ TILLAR

arab → fors → dariy → pushtu → hindiy → urdu → turk → uyg'ur → xitoy → yapon → koreys → indonez → malay → vyetnam

### Kunduzgi bakalavriat ta'lim yo'nalishlar

- 60230100 - Filologiya va tillarni o'qitish (sharq tillari bo'yicha)
- 60230100 - Filologiya va tillarni o'qitish (mumtoz tillar bo'yicha)
- 60230200 - Tarjima nazariyasi va amaliyoti (sharq tillari bo'yicha)
- 60230300 - Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik (sharq tillari bo'yicha**)**
- 60220300 - Tarix (Sharq mamlakatlari va mintaqalari bo'yicha)
- 60220500 - Falsafa (Sharq falsafasi va madaniyati)
- 60310700 - Siyosatshunoslik
- 60320100 – Jurnalistika: xalqaro jurnalistika (sharq tillari bilan)
- 60411800 - Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik (mamlakatlar va mintaqalar bo'yicha)
- 61010400 - Turizm (faoliyat yo'nalishlari bo'yicha sharq tillari bilan)
- 61010500 - Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati (sharq tillari bo'yicha)

### Kechki bakalavriat ta'lim yo'nalishlari

- 60230100 - Filologiya va tillarni o'qitish (sharq tillari bo'yicha)
- 60220300 - Tarix (Sharq mamlakatlari va mintaqalari bo'yicha)
- 61010500 - Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati (sharq tillari bo'yicha)
- 60411800 - Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik (mamlakatlar va mintaqalar bo'yicha)
- 61010400 - Turizm (faoliyat yo'nalishlari bo'yicha sharq tillari bilan)

### Sirtqi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari

- 60220300 - Tarix (Sharq mamlakatlari va mintaqalari bo'yicha)
- 60220500 - Falsafa (Sharq falsafasi va madaniyati)
- 60411800 - Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik (mamlakatlar va mintaqalar bo'yicha)
- 60310700 - Siyosatshunoslik

**Magistratura ta’lim yo‘nalishlari**

- 70220301 - Tarix (yo‘nalishlar va faoliyat turlari bo‘yicha)
- 70220303 - Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari (mamlakatlar bo‘yicha)
- 70220502 - Sharq falsafasi va madaniyati
- 70230101 - Lingvistika (sharq tillari bo‘yicha)
- 70230502 - Adabiyotshunoslik (sharq tillari va tadqiqot yo‘nalishlari bo‘yicha)
- 70230102 - Mumtoz filologiya (sharq tillari bo‘yi cha)
- 70230201 - Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik (sharq tillari bo‘yicha)
- 70230202 - Sinxron tarjima (sharq tillari bo‘yicha)
- 70230301 - Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik (sharq tillari bo‘yicha)
- 70230501 - Etnografiya, etnologiya va antropologiya
- 70310802 - Xalqaro munosabatlar va jahon siyosati
- 70411801 - Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik (mamlakatlar va mintaqalar bo‘yicha)
- 70411902 - Tashqi iqtisodiy faoliyat (tashqi savdo faoliyati)
- 71010401 - Turizm (faoliyat turlari bo‘yicha)

## MOBILLIK DAVRI VA OLDINGI TA’LIMNI TAN OLISH

Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida mobillik davri va oldingi davrbi tan olish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 824-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to‘g‘risida Nizom” asosida amalga oshiriladi.

Talaba tomonidan oliy ta’lim muassasasi ta’lim dasturi bo‘yicha to‘plangan kreditlar miqdori boshqa oliy ta’lim muassasasida belgilangan ta’lim olish natijalariga muvofiq o‘zlashtiriladigan kreditlar miqdoriga teng hisoblanadi.

Talabaning akademik mobillik davrida o‘zlashtirilishi belgilangan ta’lim elementlarini jo‘natuvchi oliy ta’lim muassasasining roziligisiz va u bilan kelishmasdan o‘zgartirish mumkin emas. Xorijdagi hamkor oliy ta’lim muassasalari, markazlar va tashkilotlarning ta’lim dasturlarida belgilangan ta’lim olish natijalari jo‘natuvchi oliy ta’lim muassasasining ta’lim dasturi bo‘yicha ta’lim olish natijalariga mos kelishi yoki ularni to‘ldirishi lozim. Mobillik vaqtida akademik yil ko‘rsatkichlari tahlil qilinadi va ushbu Nizomga asosan kreditlar tan olinishi belgilanadi.

## KREDITLARNING TAQSIMLANISH PRINSIPI

Kredit-modul tizimida 1 kredit o‘rtacha 25 - 30 akademik soatlik o‘quv yuklamasiga teng. Ya’ni talaba muayyan fandan tegishli kreditlarni to‘plashi uchun ma’lum miqdordagi o‘quv yuklamasini o‘zlashtirishi zarur. O‘quv yuklamasi bakalavriatda - 40 - 50% auditoriya soati, 50-60% mustaqil ish soatiga, magistraturada 30%-40% auditoriya soati, 60%-70% mustaqil ish

soatiga (malakaviy amaliyot va bitiruv malakaviy ishlari bundan mustasno) bo‘linadi. Kreditning soatlardagi miqdori va o‘quv yuklamasi miqdori oliy ta’lim muassasasi kengashi tomonidan belgilanadi va oliy ta’lim muassasasi veb-sahifasida shaffof tarzda joylashtiriladi.

Bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarida talaba odatda bir semestrda 30 kredit, bir o‘quv yilida 60 kredit to‘plashi belgilanadi. Semestr davomida talaba tomonidan o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan kreditlar hajmi o‘quv rejasida ko‘rsatilgan majburiy va tanlov fanlarini o‘z ichiga oladi. Talaba o‘zining shaxsiy ta’lim trayektoriyasini shakllantirishda har bir semestr uchun 30 kredit hajmidagi fanlarni o‘zlashtirishni nazarda tutishi, ular tarkibida namunaviy o‘quv rejasidagi majburiy fanlar bo‘lishi shart.

Talaba bakalavriatda o‘qish muddati kamida 4 yil bo‘lganda 240 kredit to‘plashi zarur. Magistraturada o‘qish muddati kamida 2 yil bo‘lganda 120 kredit to‘plashi talab etiladi.

## UNIVERSITET XIZMAT VA RESURSLARI

Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida talabalar o‘zlarini qiynaydigan muammolariga oson yechim topishi, fan yuzasidan berilgan topshiriqlarni chuqur o‘zlashtirishi, darsdan tashqari vaqtlarini qiziqarli va samarali tashkil qilishlari, ijtimoiy jihatdan faol bo‘lishlari, sog‘lom va malakali kadrlar bo’lib yetishishlarini ta’minlash maqsadida bir qator bo‘lim va markazlari faoliyati yo‘lga qo‘yilgan:

- Talabalar turar joyi;
- Talabalarga xizmat ko’rsatish;
- Axborot resurs markazi;
- Yoshlar ittifoqi.

## TALABALAR TURAR JOYI

Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida 1 ta talabalar turar joyi binosi mavjud bo‘lib, ularda jami 289 ta talabalar yashashi uchun mo‘ljallangan. Xorijlik talabalar uchun alohida xonalar ajratilgan. Talabalar turar joyida 5 ta muhim tashabbus xonalari tashkil etilgan bo‘lib, talabalar bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida turli mavzularda tadbirlarlar tashkil etilmoqda.

Universitetda TTJda Axborot resurs markazi faoliyat olib boradi, kompyuter va Wi-Fi bilan ta’minlangan. Talabalar turar joyi **4 qavatli** bino bo‘lib, har bir qavatda talabalarning dam olishlariga mo‘ljallangan xonalar tashkil etilgan va televizorlar bilan ta’minlangan. Shuningdek, 1 ta tashabbus xonasi va 1 ta tibbiyot xonasi, 4 ta yuvinish xonasi, 6 ta xojatxona, 3 ta kir yuvish xonasi, 6 ta oshxona mavjud.

***Qulayliklar:***

- Kompyuter xonalari;
- Axborot resurs markazi;
- Internet;
- Umumiy yuvinish xonasi;
- Umumiy hojatxona;
- Dam olish xonasi.

# TALABALAR BILAN ISHLASH XIZMATLARI

**Ish vaqti:**8:30 dan 16:30 gacha
**Ish kunlari:** Dushanbadan Shanbagacha

**Fakultetlar dekanatida ko‘rsatiladigan xizmatlar:**
- O‘qish to‘g‘risida ma’lumotnoma olish;
- Transkript olish;
- Shaxsiy ma’lumotlarni o‘zgartirish haqida so‘rov jo‘natsh;
- Ichki tartib qoidalar haqida ma’lumot olish;
- Universitetdagi mavjud kurs va markazlar haqida ma’lumot olish;
- Talabalar turar joyi haqida ma’lumot olish;
- Shikoyat va takliflar jo‘natish;
- Guruhdan guruhga o‘tish bo‘yicha ma’lumot olish;
- Fanlarga registratsiya qilish;
- Imtihonlarga sababli kirmaganlik to‘g‘risisda ma’lumot jo‘natish;
- Talabalik guvohnomalarini olish;
- Darslar jadvali haqida ma’lumot olish;
- Yakuniy imtihonlar jadvali haqida ma’lumotlar olish;
- Baholash natijalari haqida ma’lumot olish (imtihon, kurs ishi natijalari va jarayonlari haqida);

**Talabalar bo‘limida ko‘rsatiladigan xizmatlar:**
- O‘qishga kirganlik to‘g‘risida ma’lumotnoma olish;
- O‘qishni ko‘chirish haqida ma’lumotnoma olish;
- Akademik ta’til haqida ma’lumot olish;
- Talabalar safidan chetlashtirish ma’lumot olish;
- O‘qishni tiklash haqida ma’lumot olish;

**O‘quv uslubiy bo‘limda ko‘rsatiladigan xizmatlar:**
- Diplom (duplikat) olish;
- Imtihonlarga appelyatsiya berish;
- Yillik akademik kalendar haqida ma’lumot olish;

**Marketing bo‘limida ko‘rsatiladigan xizmatlar:**
- Fakultetlar haqida ma’lumot olish;
- Ta’lim yo‘nalishlari haqida ma’lumot olish;
- To‘lov shartnomasini olish;
- Karyera markazi haqida ma’lumot olish;
- Ishga joylashish haqida ma’lumot olish;

**Iqtidorli talabalar bilan ishlash bo‘limida ko‘rsatiladigan xizmatlar:**
- Stipendiyalar haqida ma’lumot olish;
- Ilmiy konferensiyalar haqida ma’lumot olish;
- Sertifikatlar olish;
- Akademik grantlar haqida ma’lumot olish.

## AXBOROT RESURS MARKAZI

**Joylashuvi:** TDShU Shahrisabz ko‘chasi, 16-uy**,**
**Ish vaqti:** 8:30 dan 16:30 gacha
**Ish kunlari:** Dushanbadan Shanbagacha
**Ko‘rsatiladigan asosiy xizmatlar:**

- Kutubxona fondidagi kitoblarni talabalarga va o‘qituvchilarga mutolaa qilish uchun berish;
- Elektron kutubxona fondini yangilab borish;
- Talabalarga ta’limga tegishli kompyuter va internet xizmatlaridan foydalanishiga imkoniyat yaratib berish;

**Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining elektron kutubxonasi: http://e-library.tsuos.uz/**
**Telefon: +99871-252-65-84**
**E-mail:** library2017@umail.uz

## O‘QUV FANLARI DASTURLARI TO‘G‘RISIDA AXBOROTLAR. O‘ZLASHTIRILADIGAN MALAKALAR

***60310700 - Siyosatshunoslik*** ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlash oliy ta’limning o‘quv reja va fan dasturi asosida kunduzgi, kechki va sirtqi ta’lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta’lim shakllari bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta’limda bakalavriat dasturining me’yoriy muddati 4 yil

***60310700 - Siyosatshunoslik*** – “Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot” ta’lim sohasidagi yo‘nalish bo‘lib, u xalqaro munosabatlar sohasini rivojlantirishga, tashqi siyosat istiqbolini belgilashga, kasbiy ko‘nikmaga, mutasaddilik kobiliyatiga yo‘naltirilgan inson faoliyatining vositalari, usullari, metodlari va uslublarining majmuasini hamda siyosiy bilimlar tizimi bilan bevosita aloqador bo‘lgan xalqaro munosabatlar tarixi va nazariyasi, diplomatiya asoslari, O‘zbekiston va xorijiy davlatlarning xalqaro munosabatlari, xalqaro tashkilotlar, siyosiy partiyalar, davlat boshqaruv organlari va xalqaro munosabatlarning boshqa aktorlari bilan bog‘liq bo‘lgan nazariy va amaliy faoliyatni o‘zida qamrab oladi.

***60310700 - Siyosatshunoslik*** **ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob’ektlari:**

- ijtimoiy-gumanitar yo‘nalishdagi ilmiy tadqiqot muassasalari va tashkilotlari;
- O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi, Diplomatik servis xizmati, Jahon axborot agentligi va Diplomatik kurslar;
- O‘zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlardagi diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari, xorijiy davlatlarning O‘zbekiston Respublikasidagi diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari;
- vazirliklar, davlat qo‘mitalari, siyosiy partiyalar, hokimliklar va boshqa davlat idoralari, muassasalarining xalqaro boshqarma va bo‘limlari;
- maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional ta’lim muassasalari va texnikumlari;
- arxivlar, qo‘lyozma fondlari, axborot-resurs markazlari, nashriyotlar, ommaviy-axborot muassasalar, turli tadbirkorlik sub’ektlari va boshqalar;
- fan va madaniyatning turli sohalari, davlat muassasalari, mamlakat va xalqaro faoliyat bilan bog‘liq bo‘lgan nodavlat va davlat tizimlari;
- tarjimonlik faoliyati, muharrirlik, noshirlik ishlari;
- ixtisoslik sohasiga oid boshqa tashkilotlar..

***60310700 - Siyosatshunoslik ta’lim*** **yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari**

- *ilmiy-tadqiqot;*
- *ma’naviy va ma’rifiy;*

- *tashkiliy-boshqaruv;*
- *pedagogik (umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional ta’lim muassasalari va texnikumlarda)*
- *tarjimonlik;*
- *ekspert-tahliliy;*
- *loyihalarni boshqarish;*
- *konsalting xizmati va shu kabilarni o‘z ichiga oladi.*

***60310700 - Siyosatshunoslik* ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar**

**Umumiy kompetensiyalar**:

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;

- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo‘yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo‘lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;

- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo‘llay bilishi, axborotlarni yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo‘lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

- sog‘lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to‘g‘risida tassavvurga ega bo‘lish.

**Kasbiy kompetensiyalar**:

- me’yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va o‘zlarining professional faoliyatlarida foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

- qabul qilingan qarorlarning ijtimoiy ahamiyati nuqtai nazaridan javobgar bo‘lish va tashkiliy va boshqaruv qarorlarini topish qobiliyatiga ega bo‘lish;

- O‘zbekiston Respublikasi siyosiy tizimining shakllanishi, rivojlanishi, shuningdek demokratik jarayonlarning o‘ziga xos xususiyatlarini yoritish;

- zamonaviy siyosiy jarayonlarning nazariy va amaliy masalalari haqida yetarli bilim hamda ko‘nikmalar, shuningdek mustaqil xulosa chiqarish qobiliyatini shakllantirish;

- o‘rganilayotgan mintaqa (mamlakat)ning siyosiy tizimi, tashqi aloqalarini tarixiy rakursda tahlili; O‘zbekiston va o‘rganilayotgan mintaqa (mamlakat) aloqalarining tarixi, buguni va istiqbollariga doir bilimlarni amalda qo‘llay olish qobiliyatini paydo qilish;

- bugungi dunyodagi geosiyosiy jarayonlarning mohiyati, yo‘nalishlari va dunyo tartibotidagi asosiy tendensiyalar haqida yetarli tasavvurlarni boyitish;

- globallashuv va integratsiyalashuv jarayonlari hamda xalqaro huquqning jahon hamjamiyati tomonidan amalda tatbiq etilishi mexanizmlari to‘g‘risida aniq tasavvurlarni yuzaga chiqarish;

- xalqaro munosabatlar va siyosatning umumbashariyligi hamda zamonaviy bosqichda dunyo davlatlari, shu jumladan O‘zbekiston, Markaziy Osiyo hamda Yaqin va Uzoq Sharq davlatlari rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlarini bilish hamda egallangan bilimlar asosida tahliliy ma’lumotlar tayyorlash, xulosa va takliflar ishlab chiqish qobiliyatini shakllantirish;

- O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy tamoyillari, davlat manfaatlari va “Tashqi siyosiy faoliyat Konsepsiyasi”ning mohiyati, maqsadlari haqida yetarli bilim va ko‘nikmalarning to‘planishini ta’minlash;

- asosiy o‘rganilayotgan sharq tilini o‘zlashtirish darajasi “A1 boshlang‘ich” bosqichidan boshlab “V2 tilni mustahkam egallash va erkin muloqot qila olish” bosqichigacha bo‘lgan ko‘nikmalar doirasidagi bilimlarni qamrab olish;

- o‘rganilgan sharq hamda g‘arb tillarida axborot tahlilini olib borish, shuningdek, tarjima va siyosiy masalalar bo‘yicha ob’ektiv konsalting xizmatlarini bajarish qobiliyatini shakllantirish;

- siyosatshunoslikka oid fanlarni o‘qitish metodikasi, dars berish mahorati, nutq madaniyati kabi tamoyillari;

- kasbiy faoliyatning standart vazifalarini axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda va axborot xavfsizligining asosiy talablarini hisobga olgan holda hal qilish qobiliyatiga *ega bo'lish*.

## O'QUV JARAYONI TASHKILIY TUZILMASI

Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida bakalavr ta'lim dasturlari 4 yil, magistratura dasturlari 2 yilni tashkil etadi.

## HEMIS - O'QUV JARAYONI AXBOROT TIZIMI

HEMIS axborot tizimi oliy ta'lim muassasalarining asosiy faoliyatlarini avtomatlashtirishhisobiga ma'muriy xodimlar, professor-o'qituvchilar va talabalarga elektron ta'lim xizmatlarini taqdimetadi. Axborot tizimi oliy ta'lim muassasalari bilan Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi o'rtasidaaxborot ko'prigi vazifasini o'taydi hamda oliy ta'lim muassasalaridan olinadigan turli xil ma'lumotlarsonini keskin kamaytirish, ularning qog'oz shaklidan voz kechish va boshqaruv tiziminiraqamlashtirishga xizmat qiladi.

**Talabalar uchun platformaga o'tish linki:**
https://student.tsuos.uz:20024/dashboard/login
**HEMIS tizimidan foydalanish haqida video qo'llanma:**
https://www.youtube.com/watch?v=2CWjW9mWGUc

## ME’YORIY VA O‘QUV-USLUBIY HUJJATLAR

Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida 11 ta ta’lim yo‘nalishi va 14 ta magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha kadrlar tayyorlanadi. Barcha ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari bo‘yicha malaka talablari, o‘quv rejalari va o‘quv dasturlari kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchilar bilan hamkorlikda xorijiy tajriba asosida ishlab chiqilgan hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining tegishli buyruqlari bilan tasdiqlangan.

### O‘QUV DAVRINING UMUMIY HAJMI TAQSIMOTI

| Bakalavriat | | Magistratura | |
|---|---|---|---|
| **Nazariy va amaliy ta’lim** | **50-50%** | **Nazariy va amaliy ta’lim** | **50-50%** |
| **Shu jumladan, auditoriya (kontaktli) va mustaqil ta’limning nisbati** | **50/50 foiz nisbatida** | **Shu jumladan, auditoriya (kontaktli) va mustaqil ta’limning nisbati** | **50/50 foiz nisbatida** |
| **Attestasiya** | **6-11%** | **Attestasiya** | **4-9%** |
| **Ta’tillar** | **8-18%** | **Ta’tillar** | **6-16%** |
| **Malakaviy amaliyot** | **8-25%** | **Ilmiy faoliyat** | **45-55%** |
| **Bitiruv malakaviy ishi** | **2-7%** | | |

### TDSHU TA’LIM BOSQICHLARI O‘QUV REJALARIGA MUVOFIQ KREDITLAR TAQSIMOTI

| № | Bakalavriat | |
|---|---|---|
| | **Bloklarning nomlari** | **kredit hajmi** |
| 1 | **Majburiy fanlar** | **164-174** |
| 2 | **Tanlov fanlar** | **54-64** |
| 3 | **Malakaviy va pedagogik amaliyotlar** | **8** |
| 4 | **Yakuniy davlat attestasiyasi** | **4** |
| | **Jami kredit hajmi** | **240** |

| № | Magistratura | |
|---|---|---|
| | **Bloklarning nomlari** | **kredit hajmi** |
| 1 | **Majburiy fanlar** | **36** |
| 2 | **Tanlov fanlar** | **24** |
| 3 | **Ilmiy faoliyat (ilmiy-tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash; ilmiy-pedagogik ish; ilmiy amaliyot)** | **60** |
| | **Jami kredit hajmi** | **120** |

## TALABALAR BILIMINI BAHOLASH VA NAZORAT QILISH ME’ZONLARI

<table>
<tr><td>Baholash usullari</td><td colspan="2">Test, yozma ish, og‘zak so‘rov.</td></tr>
<tr><td>Baholash mezonlari</td><td colspan="2">5 (a’lo) baho:<br>- talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo‘llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega;<br>4 (yaxshi) baho:<br>- talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo‘llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega;<br>3 (qoniqarli) baho:<br>- talaba olgan bilimini amalda qo‘llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega;<br>2 (qoniqarsiz) baho:<br>- talaba fan dasturini o‘zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega emas.</td></tr>
<tr><td rowspan="9">Baholash turlari</td><td>Joriy nazorat (semestr uchun):</td><td>O‘tkazish vaqti</td></tr>
<tr><td>Nazariy va amaliy mashg‘ulotlardagi faolligi</td><td rowspan="2">Semestr davomida<br>Fan o’qituvchisi tomonidan o’tkaziladi</td></tr>
<tr><td>Mustaqil ta’lim topshiriq-larini bajarish</td></tr>
<tr><td>Oraliq nazorat</td><td>O‘tkazish vaqti</td></tr>
<tr><td>Og‘zaki so‘rov (bunda joriy nazorat natijalari hisobga olinadi)</td><td>Semestr davomida<br>fan o’qituvchisi tomonidan o’tkaziladi</td></tr>
<tr><td>Yakuniy nazorat:</td><td>O‘tkazish vaqti</td></tr>
<tr><td>Test, yozma ish va og‘zak so‘rov shaklida o‘tkaziladi</td><td>Semestr yakunida kafedra tomonidan belgilangan o’qituvchi tomonidan o’tkaziladi</td></tr>
</table>

**Baholashni 5 baholik shkaladan 100 ballik shkalaga o‘tkazish JADVALI**

| 5 baholik shkala | 100 ballik shkala | 5 baholik shkala | 100 ballik shkala | 5 baholik shkala | 100 ballik shkala |
|---|---|---|---|---|---|
| 5,00 — 4,96 | 100 | 4,30 — 4,26 | 86 | 3,60 — 3,56 | 72 |
| 4,95 — 4,91 | 99 | 4,25 — 4,21 | 85 | 3,55 — 3,51 | 71 |
| 4,90 — 4,86 | 98 | 4,20 — 4,16 | 84 | 3,50 — 3,46 | 70 |
| 4,85 — 4,81 | 97 | 4,15 — 4,11 | 83 | 3,45 — 3,41 | 69 |
| 4,80 — 4,76 | 96 | 4,10 — 4,06 | 82 | 3,40 — 3,36 | 68 |
| 4,75 — 4,71 | 95 | 4,05 — 4,01 | 81 | 3,35 — 3,31 | 67 |
| 4,70 — 4,66 | 94 | 4,00 — 3,96 | 80 | 3,30 — 3,26 | 66 |
| 4,65 — 4,61 | 93 | 3,95 — 3,91 | 79 | 3,25 — 3,21 | 65 |
| 4,60 — 4,56 | 92 | 3,90 — 3,86 | 78 | 3,20 — 3,16 | 64 |
| 4,55 — 4,51 | 91 | 3,85 — 3,81 | 77 | 3,15 — 3,11 | 63 |
| 4,50 — 4,46 | 90 | 3,80 — 3,76 | 76 | 3,10 — 3,06 | 62 |
| 4,45 — 4,41 | 89 | 3,75 — 3,71 | 75 | 3,05 — 3,01 | 61 |
| 4,40 — 4,36 | 88 | 3,70 — 3,66 | 74 | 3,00 | 60 |
| 4,35 — 4,31 | 87 | 3,65 — 3,61 | 73 | **3,0 dan kam** | **60 dan kam** |

<table>
<tr><th colspan="8">Oliy ta’limda talabalar o‘zlashtirishini baholash tizimlarini qiyosiy taqqoslash JADVALI</th></tr>
<tr><th>Taklif etilayotgan O‘zbekiston tizimi</th><th>Rossiya tizimi (MDU)*</th><th>Yevropa kredit transfer tizimi (ECTS — European Credit Transfer System)</th><th>Amerika tizimi (A- F)</th><th>Britaniya tizimi (%)</th><th>Yaponiya tizimi (%)</th><th>Koreya tizimi (%)</th><th>O‘zbekiston tizimi (%)</th></tr>
<tr><td rowspan="3">“5”</td><td rowspan="3">“5”</td><td rowspan="3">“A”</td><td>“A+”</td><td rowspan="2">70 — 100</td><td rowspan="3">80 — 100</td><td rowspan="3">90 — 100</td><td rowspan="3">90 — 100</td></tr>
<tr><td>“A”</td></tr>
<tr><td>“A-”</td><td>65 — 69</td></tr>
<tr><td rowspan="3">“4”</td><td rowspan="3">“4”</td><td>“B”</td><td>“B+”</td><td>60 — 64</td><td rowspan="3">70 — 79</td><td rowspan="3">80 — 89</td><td rowspan="3">70 — 89,9</td></tr>
<tr><td rowspan="2">“C”</td><td>“B”</td><td rowspan="2">50 — 59</td></tr>
<tr><td>“B-”</td></tr>
<tr><td rowspan="6">“3”</td><td rowspan="6">“3”</td><td>“D”</td><td>“C+”</td><td>45 — 49</td><td rowspan="6">60 — 69</td><td rowspan="3">70 — 79</td><td rowspan="6">60 — 69,9</td></tr>
<tr><td rowspan="5">“E”</td><td>“C”</td><td rowspan="5">40 — 44</td></tr>
<tr><td>“C-”</td></tr>
<tr><td>“D+”</td><td rowspan="3">60 — 69</td></tr>
<tr><td>“D”</td></tr>
<tr><td>“D-”</td></tr>
<tr><td>“2”</td><td>“2”</td><td>“FX”</td><td>“F”</td><td>0 — 39</td><td>0 — 59</td><td>0 — 59</td><td>0 — 59,9</td></tr>
</table>

## DASTUR TAFSIFI VA FAN PLATFORMALARI

### DASTUR HAQIDA

**Ta'lim shakllari:** kundizgi, kechki
**Ta'lim tillari:** o'zbek/rus
**Dastur davomiyligi:** 4 yil
**Beriladigan daraja:** bakalavr
**Dastur nomi:** Siyosatshunoslik
**Dastur Kod:** 60210700

| T/R | Fan kodi | Majburiy fanlar | Soat | Kredit miqdori |
|---|---|---|---|---|
| **1-semetr** | | | | |
| 1. | OT104 | O'zbekistonning eng yangi tarixi | 120 | 4 |
| 2. | GT132 | G'arb tili | 120 | 4 |
| 3. | OT104<br>RT104 | O'zbek (rus) tili | 60 | 2 |
| 4. | SN106 | Sharqshunoslikka kirish | 60 | 2 |
| 5. | ST174 | Asosiy sharq tili | 240 | 8 |
| 6. | SN106 | Siyosatshunoslik | 120 | 4 |
| **Tanlovfanlar** | | | | |
| 7. | AJTM204 | Axborot jarayonlari va tizimlarini modellashtirish | 60 | 2 |
| 8. | JTS203 | Jismoniy tarbiya va sport | 30 | 1 |
| 9. | STT203 | O'rganilayotgan mintaqa mamlakatlarida siyosiy ta'limotlar tarixi | 60 | 2 |
| 10. | STT201 | Sog'lom turmush tamoyillari | 30 | 1 |
| **2-semetr** | | | | |
| 11. | DK102 | Dinshunoslik. | 60 | 2 |
| 12. | GT132 | G'arb tili | 120 | 4 |
| 13. | OT104<br>RT104 | O'zbek (rus) tili | 120 | 2 |
| 14. | ST174 | Asosiy sharq tili | 300 | 10 |
| 15. | SN106 | Siyosatshunoslik | 60 | 2 |
| 16. | MT108 | O'rganilayotgan mintaqa mamlakatlari siyosiy tarixi | 120 | 4 |
| **Tanlov fanlar** | | | | |
| 17. | AJTM204 | Axborot jarayonlari va tizimlarini modellashtirish | 120 | 2 |
| 18. | JTS203 | Jismoniy tarbiya va sport | 60 | 2 |
| 19. | STT203 | O'rganilayotgan mintaqa mamlakatlarida siyosiy ta'limotlar tarixi | 30 | 1 |
| 20. | HFX201 | Hayot faoliyati xavfsizligi | 30 | 1 |

# FANLAR KATALOGI

| T/r | Fanning kodi* | Fanning nomi | Fanning qisqacha tavsifi | Kredit miqdori | Sem estr | Professor-o‘qituvchilar F.I.Sh. ilmiy unvoni va darajasi |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **Majburiy fanlar** | | | | | | |
| 1 | SK106 | Sharqshunoslikka kirish | Fanni o‘qitishdan maqsad-siyosiy va Sharqshunoslikka kirish fanini siyosatshunoslarga chuqur va atroflicha o‘rganishi juda muhim. Insoniyat yangi XXI asrga qadam qo‘yar ekan «demokratiya», «siyosat», «davlat», «huquq» xamda terrorizmga kqarshi kurash kabi masalalarga yangicha yondoshish va o‘rganishga katta e’tibor berilmoqda. Dunyoda bugun sodir bulayotgan siyosiy va huquqiy voqeiyliklarni tug‘ri tushunish va ularni ilmiy tavsiflash avvalambor shu sohaning tarixini yaxshi o‘rganishni taqozo etadi. | 2 | 1 | Mustapova H.I. Katta o‘qituvchi |
| 2 | SN106 | Siyosatshunoslik | Fanning maqsadi talabalarni zamonaviy jahon siyosatiga doir asosiy politologik nazariy kontseptsiyalar, fanning metodologik jihatlari va paradigmasi bilan tanishtirish; xalqaro munosabatlar va jahon siyosati subektlarining manfaatlari, maqsadlari va olib borayotgan siyosatini aniqlash va kuzatishga o‘rgatish; jahon siyosati jarayonlarini boshqaruvchi qonuniyatlarni ochib berish; jahon siyosatining bugungi kun hususiyatlarini jahon tartibosi nazariyasi orqali ko‘rsatib berish. | 6 | 1-2 | Bituraev U.B. Katta o‘qituvchi |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 3 | OMST104 | O‘rganilayotgan mintaqa mamlakatlari siyosiy tarixi | Fanning maqsadi talabalarda insoniyat ma’naviy madaniyatining muhim tarkibiy qismi, ajdodlarimizning ulkan siyosiy tajribasi, qonunchilik, siyosat, davlatchilik muammolari borasidagi tadqiqotlarning asosiy yo`nalishlari va natijalari, shuningdek. ko‘p asrlik tajribalar, g‘oyalar va qo‘lga kiritilgan natijalarning zamonaviy siyosiy-huquqiy qarashlar va yo‘nalishlarga, hozirgi kundagi nazariya va amaliyotga sezilarli darajada ta’siri borasidagi bilim va malakasini shakllantirishdan iborat. Bir semestrga mo‘ljallangan kurs mobaynida dunyo siyosiy ta’limotlariniig yuzaga kelishi, shakllanishi asosiy bosqichlari, yo`nalishlarini yoritish, o‘rganilayotgan mintaqa mamlakatlarida siyosiy ta’limotlarning ijtimoiy va siyosiy tarixida uchraydigan turli vaziyatlarni tahlil qilish, mazmun-mohiyatini bilish, ularga nisbatan shaxsiy munosabatni shakllantirish orqali insonning hayotdagi o‘rni va ahamiyatini ochib berish hamda jahon siyosatidagi eng dolzarb muammolarni anglash va ularni tahlil qilish ko‘nikmalariga ham ega bo‘lishlari e’tiborga olinadi. | 4 | 2 | Mamadjonov A.B. o‘qituvchi |
| 4 | IXMN335 | Xalqaro munosabatlar nazariyasi | Fanni o‘qitishdan maqsad – talabalarni zamonaviy xalqaro munosabatlarga asosiy siyosiy nazariyalar, fanning metodologik jihatlari va paradigmasi bilan tanishtirishdan iborat | 5 | 3 | Bo‘ronov Suhrob Maxammadi o‘g‘li o‘qituvchi, Nazarov A.N. PhD |
| 5 | MXM204 | O‘rganilayotgan mintaqa mamlakatlari xalqaro munosabatlari | O‘rganilayotgan mintaqa mamlakatlari xalqaro munosabatlar haqida to‘liq tanishtirishdan iborat. | 4 | 4 | Azimov H.Y. o‘qituvchi |
| 6 | UJSY424 | Jahon siyosati | Fanning maqsadi talabalarni zamonaviy jahon siyosatiga doir asosiy politologik nazariy kontseptsiyalar, fanning metodologik jihatlari va paradigmasi bilan tanishtirish; xalqaro munosabatlar va jahon siyosati subektlarining | 4 | 4 | Mustapova H.I. Katta o‘qituvchi |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | manfaatlari, maqsadlari va olib borayotgan siyosatini aniqlash va kuzatishga o‘rgatish; jahon siyosati jarayonlarini boshqaruvchi qonuniyatlarni ochib berish; jahon siyosatining bugungi kun hususiyatlarini jahon tartibosi nazariyasi orqali ko‘rsatib berish.Ushbu maqsadga erishish uchun fan talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, siyosiy-huquqiy jarayonlarga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish vazifalarini bajaradi.Fanning vazifasi - nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, siyosiy hodisa va jarayonlarga uslubiy yondoshuv hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish, siyosatshunoslik qonunlari va kategoriyalar mazmun-mohiyatini bilish, ularga nisbatan shaxsiy munosabatni shakllantirish orqali insonning hayotdagi o‘rni va ahamiyatini ochib berish. | | | |
| 7 | USYT424 | Siyosiy tahlil | Fanning maqsadi talabalarni zamonaviy jahon siyosatiga doir asosiy politologik nazariy kontseptsiyalar, fanning metodologik jihatlari va paradigmasi bilan tanishtirish; xalqaro munosabatlar va jahon siyosati subektlarining manfaatlari, maqsadlari va olib borayotgan siyosatini aniqlash va kuzatishga o‘rgatish | 4 | 4 | Jo‘raev S.A. s.f.d.,prof. |
| 8 | SD204 | Siyosat va din | Fanning maqsadi talabalarni zamonaviy jahon siyosatiga doir asosiy politologik nazariy kontseptsiyalar, fanning metodologik jihatlari va paradigmasi bilan tanishtirish; xalqaro munosabatlar va jahon siyosati subektlarining manfaatlari, maqsadlari va olib borayotgan siyosatini aniqlash va kuzatishga o‘rgatish | 4 | 4 | Yovkochev Sh.A. s.f.d.,prof. |

| Tanlov fan | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| Bakalavr | | | | | | |
| 1 | CTT203 | O‘rganilayotgan mintaqa mamlakatlarida siyosiy ta’limotlar tarixi (tanlov fan*)* | Fanni o‘qitishdan maqsad-siyosiy va xukukiy ta’limotlar tarixi fanini siyosatshunoslarga chuqur va atroflicha o‘rganishi juda muhim. Insoniyat yangi XXI asrga qadam qo‘yar ekan «demokratiya», «siyosat», «davlat», «huquq» xamda terrorizmga kqarshi kurash kabi masalalarga yangicha yondoshish va o‘rganishga katta e’tibor berilmoqda. Dunyoda bugun sodir bulayotgan siyosiy va huquqiy voqeiyliklarni tug‘ri tushunish va ularni ilmiy tavsiflash avvalambor shu sohaning tarixini yaxshi o‘rganishni taqozo etadi. Siyosiy va xuquqiy ta’limotlar tarixi fani huquqshunoslik fanlarining murakkab, boy qirralarini o‘rganishda ilmiy labaratoriya vazifasini o‘taydi. Qadim zamonlardan to bugungi kunga kadar turli mamlakatlarda turli zamonlarda, tarixchilar ta’biri bilan aytganda, turli sivilizatsiyalarda siyosiy va huquqiy ta’limotlarning paydo bulishi va rivojlanishi tarixining eng muhim qirralarini o‘rganadi. | 3 | 1-2 | O‘qituvchi-stajor, A.B.Mamadjonov, Mustapova H.I. Katta o‘qituvchi |
| 2 | OG202 | O‘zbekiston geosiyosati (tanlov fan) | Fanni o‘qitishdan maqsad– talabalarga O‘zbekiston geosiyosiy salohiyatining nazariy asoslarini, O‘zbekistonning mintaqadagi tashqi siyosatini tahlil etishni o‘rgatish va ularni amaliyotda tadbiq etish ko‘nikmasini hosil qilishdan iborat | 2 | 3 | Bo‘ronov Suhrob Maxammadi o‘g‘li o‘qituvchi |
| 3 | MSIV206 | Tili o‘rganilayotgan mamlakatdagi siyosiy-ijtimoiy vaziyat (tanlov fan*)* | Fanni o‘qitishdan maqsad – Tili o‘rganilayotgan mamlakatdagi siyosiy-ijtimoiy vaziyat haqida to‘liq tanishtirishdan iborat. Shuningdek, ushbu fan doirasida tili o‘rganilayotgan davlat(Hindiston) davlat tuzumi, asosiy siyosiy partiyalari va ularning siyosatdagi o‘rni va roli, ichki va tashqi siyosiy islohotlar haqida tassavurlar xosil qilishdan iborat. | 6 | 2 | Tili o‘rganilayotgan mamlakatdagi siyosiy-ijtimoiy vaziyat (tanlov fan*)* |